

## Muqaddas xotira

2018 yil 30 yanvar kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida G'ulom Bekmirzayev, Normurod Sattarov, Anvar Suvanov, Javlonbek Qutlimurotovlar hamda "Gumanitar fanlar" kafedrasida dotsenti Gulnora Xudoyberdiyeva tomonidan Mustaqil davlatimiz asoschisi, buyuk davlat va siyosat arbobi, O'zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov tavalludining 80 yilligi munosabati bilan tarmoq markazida tashkil qilingan qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilari ishtirokida davra suhbatini o'tkazildi.

Ushbu tadbirda mustaqillik yillari mamlakatimiz erishgan yutuqlarida Islom Abdug'aniyevich Karimovning bevosita qo'shgan hissalarini, ularning milliy davlatchiligimiz tarixida qilgan buyuk ishlari shuningdek, ona vatanimizning mustaqilligi, el-yurt ravnaqi yo'lidagi ulkan tarixiy xizmatlarini inobatga olib, ularning xotirasini abadiylashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berildi.



**PKQT va UMO TM uslubchisi Javlonbek Qutlimurotov axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**